

## “Adiblar xiyoboni”ga tashrif

Bugun poytaxtimizdagi “Adiblar xiyoboni”da buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 581 yilligiga bag’ishlangan tadbir bo’lib o’tdi. Unda ilm-fan namoyandalari, ziyolilar, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, adabiyotshunos olimlar, barcha oliy ta’lim muassasalar ishtirok etishdi. Ushbu tadbirda barcha oliy ta’lim muassasalar qatorida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqotlar Unversiteti jamoasi hamda talaba-yoshlari faol eshtirok etishdi.



“Adiblar xiyoboni” bayramona bezatilgan. Maydonda o’rnatilgan monitorda mutafakkir shoirning hayoti va ijodiga oid videoroliklar, g’azallari va hikmatli so’zlaridan namunalar namoyish etildi. Xiyobonda shoir g’azallari bilan aytiladigan mumtoz ashulalar va maqom kuylari yangradi. Alisher Navoiy ijodiga oid kitoblar ko’rgazmasi, badiiy adabiyotlar yarmarkasi tashkil etilganligi barchaga o’zgacha ruh bag’ishladi. Tadbirni O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid ochib, mamlakatimizda Alisher Navoiy merosini o’rganish bo’yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotganini ta’kidladi. Ayniqsa, Navoiy nomidagi ijod maktabi tashkil etilishi, mutafakkir nomidagi orden, Xalqaro jamoat fondining ta’sis etilishi, kelgusi yildan boshlab maktablarda shoir ijodi muayyan konseptsiya asosida uzluksiz o’qitilishining yo’lga qo’yilishiga alohida e’tibor qaratildi. Navoiyshunos olimlar O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolari esa Alisher Navoiy g’azallarining chet tillar, xususan, nemis tiliga tarjimalari haqida to’xtalib, shoir g’azallaridan birini nemis tilida o’qib berishdi. Tadbirda Unversitetimiz jamoasi hamda talabalar barcha ishtirokchilari qatorida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo’yishdi.



Shu yerda yozuvchi va shoirlar, oliy o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilari va talabalari ishtirokida adabiyot va kitobxonlik tadbirlari ham o’tkazildi. Ushbu tadbir davomi sifatida Unversitetining “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti dekani Sh.Narboyev, Yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini X. Eshova, Universitet matbuot xizmati rahbari R.Jumaniyozov, “Yerdan foydalanish” kafedrasida katta o’qituvchisi Z.Hafizova, fakultet tyutorlari hamda iqtidorli talaba-yoshlari atoqli ijodkorning haykali poyiga gullar qo’yilishdi. Fakultetimiz talaba-yoshlari tomonidan "Abdullaxonlik" she’riyat kechasi adabiyot shinavandalarini mushoiraga chorladi. Unda shoir ijodidan namunalar, Vatan haqidagi she’rlar aytili.

**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**